



# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI




**Sanoat statistikasi bo'limi  
Tel.: 61-222-75-87**


## Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2022- yil yanvar-mart oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida respublika korxonalarini tomonidan 4299,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 101,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 84,8 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatning – 2,5 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 3,2 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab  
chiqarishi hajmidagi  
ulushi, foizda**

2021- yil

B

0,2 %


2022- yil

B


0,2 %

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Ohah tosh, ming t.	45,2	67,4	22,2




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	523,7	369,0	-154,7
Gaz kondensati, ming t.	26,3	20,1	-6,2

## Ishlab chiqaradigan sanoat

mldr. so'm

FHI, % da



2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3646,0 mldr. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,8 % ini tashkil etdi.


2021-yil

85,2 %

2022-yil



84,8%

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2021- yil yanvar-mart 1,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 63,9 % (67,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 3,0 % (2,6 %) va quyi texnologiyalisi – 32,8 % (28,8 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 64,0 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 98,1 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 12,0 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 92,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,7 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 132,8 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,3 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 146,6 %) tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 75,7 ming tonna portlandsement (2021- yilning mos davriga nisbatan 20,3 % ga), 10,8 ming tonna paxta tolasi (13,8 %), 15,8 ming tonna paxta chigiti (0,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, 21,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (4,7 % ), 1,1 ming tonna tozalangan guruch (10,7 % ), 927,7 ming litr aroq (14,2 % ), 3,6 ming tonna kalava ip (24,3 % ) va 1,5 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (41,6 % ) ishlab chiqarilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirit	1080,6	927,7	-152,9
Polietilen, ming t.	93,2	75,7	-17,5
Polipropilen, ming t.	24,8	21,5	-3,3
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	22,8	21,8	-1,0
Paxta tolasi, ming t.	9,5	10,8	1,3
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	2,6	1,5	-1,1

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 66,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 111,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 63,9 % ni, fizik hajm indeksi 98,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2329,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-mart oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 46,6 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 85,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 103,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 8,4 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 387,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 118,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning mart oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 102,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 50,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 118,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 30,7 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 681,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Kiyim ishlab chiqarish sanoati**


2021- yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 143,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %, fizik hajm indeksi 151,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 35,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 624,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,5 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,2 % ga oshganligi kuzatildi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1284,1	1553,6	269,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	28,2	24,0	-4,2
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	44740,2	48147,0	3406,8

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish  
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat  
korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	1568,2	1614,1	459,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	3694,3	4363,5	669,2
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	11718,4	13119,5	1401,1

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar – 12,0 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 2,9 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar – 18,1 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 565,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 94,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 13,1 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil  
yanvar-mart

64,8 %

2022-yil  
yanvar-mart

62,0 %

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil  
yanvar-mart

35,2 %

2022-yil  
yanvar-mart

38,0 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 8,8 % (2021- yil yanvar-mart oylari 7,5 %) ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 16,5 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 14,9 % ni, Taxtako'pir tumani 9,1 % ni, Beruniy tumani 7,8 % ni, Ellikqal'a tumani 7,6 % ni, To'rtko'l va Xo'jayli tumanlari 7,5 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (94,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Taxtako'pir (161,5 %), Qorao'zak (150,7 %), Chimboy (131,3 %), Mo'ynoq (127,5 %), Nukus (118,3 %), Amudaryo (106,8 %), Kegeyli (105,6 %), To'rtko'l (105,5 %) hamda Ellikqal'a (105,0 %), tumanlarida qayd etildi.

**Yanvar - mart**

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 16,5 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 14,9 % ni, Taxtako'pir 9,1 % ni, Beruniy tumani 7,8 % ni, Ellikqal'a tumani 7,6 % ni, To'rtko'l va Xo'jayli tumanlari 7,5 % ni tashkil etdi.



447,2 mlrd. so'm


2020- yil

562,9 mlrd. so'm

2021- yil

565,4 mlrd. so'm

2022- yil



2020-yil

103,7 %

2021- yil

108,3 %

2022- yil

94,3 %

**Yanvar - mart**

**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Taxtako'pir tumaniga to'g'ri kelib, 14,7 % ni, shuningdek, Ellikqal'a tumani 13,2 % ni, Nukus shahri 12,0 % ni, Beruniy va Xo'jayli tumanlari 8,2 % ni, Chimboy tumani 7,8 % ni hamda To'rtko'l tumani 7,0 % ni tashkil etdi.

**168,9** mlrd. so'm


2020- yil

**198,0** mlrd. so'm

2021- yil

**215,0** mlrd. so'm

2022- yil



Jami iste'mol  
mollari ishlab  
chiqarish hajmida  
nooziq- ovqat  
mahsulotlarining  
ulushi

01

109,8 %

2020- yil

02


108,4 %

2021- yil

03

100,0 %

2022- yil



**o'sish sur'ati**

**mlrd. so'm**

**Yanvar - mart**

### Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Taxiatush tumaniga to'g'ri kelib, 21,9 %, shuningdek, Nukus shahri 19,3 % ni, To'rtko'l 7,9 % ni, Beruniy 7,6 % ni, Xo'jayli 7,0 % ni, Chimboy ni 5,8 % ni hamda Taxtako'pir 5,7 % ni tumanlari tashkil etdi.



278,3 mlrd. so'm


2020- yil

364,9 mlrd. so'm

2021- yil

350,4 mlrd. so'm

2022- yil



## Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 55,3 %), Taxiatosh (13,9 %), To'rtko'l (4,4 %), Beruniy (4,2 %), Qo'ng'irot (4,1 %) va Amudaryo (3,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Qoraqalpog'iston Respublikasi

**2020- yil**

**3352,6 mlrd. so'm**

**2021- yil**

**4158,8 mlrd. so'm**

**2022- yil**

**4299,6 mlrd. so'm**



**2020- yil**


**106,1 %**

**2021- yil**

**109,4 %**


**2022- yil**

**101,8 %**



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (7211,0 ming so'm) va Taxiatosh tumanida 7931,3 ming so'm) o'rtacha Respublika darajasi ko'rsatkichidan (2202,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Qoraqalpog'iston Respublikasi

2020- yil

1763,5 ming so'm

2021- yil

2159,7 ming so'm

2022- yil

2202,5 ming so'm



01 2020- yil 104,5 %

02 2021- yil 107,0 %

03 2022- yil 100,4 %

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 289,6 ming so‘m bo‘lgani holda, Taxtako‘pir tumanida 1266,7 ming so‘mni, Taxiatoш tumanida 1115,1 ming so‘mni, Shumanay tumanida 337,1 ming so‘mni va Xo‘jayli tumanida 335,7 ming so‘mni tashkil etdi.

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi

2020- yil

235,2 ming so‘m

2021- yil

292,3 ming so‘m

2022- yil

289,6 ming so‘m



2020- yil

93,1 %

2021- yil

108,0 %

2022- yil

102,2 %

Amudaryo

104,9

150,8

Beruniy

100,8

223,3

Bo‘zatov

99,6

148,0

Qonliko‘l

82,0

122,7

Qoro‘zak

149,4

221,0

Kegeyli

104,9

133,0

Qo‘ng‘iroт

99,1

213,5

Mo‘ynoq

124,9

259,7

Nukus t.

116,4

166,7

Taxiatoш

99,4

1115,1

Taxtako‘pir

160,7

1266,7

To‘rtko‘l

103,8

192,0

Xo‘jayli

70,3

335,7

Chimboy

130,4

324,7

Shumanay

99,6

337,1

Ellikqal‘a

103,3

261,0

Nukus sh.

60,1

283,2


*o‘sish sur’ati*

*ming. so‘m*

2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra

### Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda respublikada 3219 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1567 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyl sonining 48,6 %) Nukus shahriga 661 tasi (20,5 %), To'rtko'l 328 tasi (10,2 %), Amudaryo 303 tasi (9,4 %), Beruniy 275 tasi (8,5 %) tumanlariga to'gri kelmoqda.



**yangi tashkil etilgan**

**faoliyat yuritayotgan**

#### Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil

187 dona

2021- yil

210 dona

2022- yil

179 dona



#### Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil

2444 dona

2021- yil

2962 dona

2022- yil

3219 dona

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 41 ta loyiha bo'yicha 128,3 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 1,0 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2022-yilning yanvar-mart oylarida 55 ta yangi ish o'rnlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rnlari soni 111,5 % ga oshgan. Shu bilan birga, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining kamayganligi kuzatildi.